

**GURUH BO'LIB ISHLASH ORQALI NUTQ, MULOQOT
MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH**

Niyazova Moxichexra

Asaka pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada 6-7 yoshli bolalarni nutq o'stirish – umumiylar bo'lib ishlash orqali nutq, muloqot malakalarini rivojlanishiga usullari va mazmuni xususidagi fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Tovush madaniyatini shakllantirish, lug'at ishi, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, bog'lanishli nutqni shakllantirish, ijodiy hikoya qilish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Аннотация: В этой статье рассматриваются методы и содержание развития речевых и коммуникативных навыков детей в возрасте 6 - 7 лет, работающих в группе.

Ключевые слова: формирование культуры звука, словарная работа, формирование грамматической структуры речи, формирование связной речи, творческое повествование, знакомство с художественной литературой.

Abstract: in this article, ideas are put forward about the methods and content of developing speech and communication skills of 6-7-year-old children by working in a general group.

Keywords: formation of sound culture, vocabulary work, formation of grammatical structure of speech, formation of connected speech, creative storytelling, introduction to fiction.

KIRISH

Mamlakatimiz yoshlariga erta ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z zimmasiga olgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bilimlar berish shakli mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, undagi grammatik va fonetik

qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borish bilan bir qatorda undagi psixologik va intellektual jihatlari rivojlanib boradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida beshta metodika bo‘yicha bolalarga ta’lim-tarbiya saboqlari berib boriladi. Bulardan eng asosiysi «Nutq o‘sirish mashg‘ulotlari» desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, nutq o‘sirish nafaqat bolaning so‘z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarining, shu jumladan bolaning tafakkurini o‘sirishda ham muhim vosita bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi paytda maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo‘yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi. Shunday qilib, pedagogika ilmining hozirgi bosqichida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga nisbatan qo‘yiladigan talablar bilan ushbu talablar ijrosi o‘rtasida ziddiyatlar namoyon bo‘lmoqda.

ASOSIY QISM

«Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o‘zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari zarur, degan xulosani keltirib chiqaradi. Olti-yetti yoshga kelib, bola odatda, nutqning barcha grammatik shakllarini, ya’ni: otlarni turlash, eng ko‘p qo‘llaniladigan fe’llarni tuslashni bilishi lozim. Harakat belgisini (kenglik, vaqt, harakat obrazi) tavsiflash uchun ular ravishlardan foydalanadilar, buning uchun bolalar ularni so‘z birikmasi va gap qatorida qo‘llaydilar: tez yurdi, sekin gapirdi, chapga burildi va boshqalar.

Yetti yoshli bolalar nutqida old ko‘makchilar ko‘pincha nafaqat o‘z ma’nosida, balki chet ma’noda ham qo‘llaniladi. Shunisi diqqatga sazovorki, old ko‘makchilar dastlab kenglik ma’nosи ko‘rsatkichi sifatida to‘rt-besh yoshli bolalar nutqida paydo bo‘ladi (uydan, devordan uzoqlashdi); so‘ngra besh-olti yoshli bolalar ushbu old ko‘makchini obyektiv ma’no ko‘rsatkichi sifatida ham qo‘llaydilar (onamning sovg‘asi, dadamning xati) va faqat, keyinroq, yetti-sakkiz yoshlarga kelib, bola sabab ma’nosini ifodalash uchun «dan» old ko‘makchisidan

foydalanishi mumkin (qo‘rqnidan qichqirib yubordi, og‘riqning zo‘ridan yig‘lab yubordi).

Mashg‘ulotlarda tarbiyachi ataylab bolalarga bir-birining o‘rnini bosishi mumkin bo‘lgan gaplar tuzishni o‘rgatadi. Aynan bir mavzuga oid gaplar variantlarini yaratish uchun didaktik o‘yinlar, syujetli rasmlar, badiiy matnlardan foydalanish mumkin. Bitta fikrni ifodalash uchun turlicha gaplar tuzishga oid ishlar yetti yoshli bolalarda grammatik to‘g‘ri nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy o‘rinni egallashi lozim. Bu yoshdagi bolalarga nutqda sifatdoshlarni qo‘llashni o‘rgatish ular nutqini rivojlantirishga doir ishlarning ikkinchi yo‘nalishi bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglar ham ushbu sohaning muhimligini diqqat e’tiborda tutishadi. O‘z faoliyatları davomida turli metodika va usullardan foydalanib bolalalr nutqini to‘g‘ri va ravon o‘stirishga harakat qilishadi. Shunday mashg‘ulotlardan biri bilan tanishsak.

Asaka pedagogika kollejida majburiy maktabga tayyorlov guruhida "Rasmlarni to‘pla" mavzusida diqqatni rivojlantirish, og‘zaki nutqni o‘stirish bo‘yicha mantiqiy o‘yin mashg‘uloti o‘tkazildi.



Tashkil etilga ushbu o‘quv mashg‘uloti tilning rivojlanishi bolalar hayotining har bir jabhasida va ta’limiy muvaffaqiyatlarida eng muhim omildir. 2-6 yoshdagi bolalarning taxminan 6 % i til rivojlanishi bilan bogliq muammolarga duch keladi. Tilning yetarlicha shakllanmaganligi bolalarning butun hayoti davomida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va ular bilish, savodxonlik, ijtimoiy

munosabat, diqqat va o‘qitish hamda o‘rganishga tayyorgarlikda qator qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Shuning uchun ham o‘z shaxsini erta anglash juda muhim hisoblanishiga qaratilgan hamda yangi o‘yin va metodikalarni qamrab olgan.



Ushbu yo’nalishda olib borilayotgan ishlar mактабгача та’лимнинг айнан huquiy me’yoriy asoslari normalari talab darajasi asosida tashkil etilganligi yanada diqqatga sazovordir. Mактабгача та’лимнинг давлат о’кув дастуридаги айнан til va nutq markazida rasmlar asosida suhbat faoliyatлари кенг о’рин egallagan va mavzuli rejalashtirishlarda о’рин олган. Masalan sentabr oyining birinchi haftasida katta guruhlarda mavzu asosida:

Til va nutq. markazi

Mavzu: «Ona Vatan» mavzusidagi rasmlar asosida suhbat.

Maqsad: O’з yashab turgan Vatani shahari, ko’chasi, mahallasi haqida ma'lumotga ega va nomlay oladi. Do’sti bilan hyech qanday to’siqsiz muloqotga kirisha oladi. Nutqi rivojlanadi, rasmlarni bir-biridan farqlay oladi, o’z fikrini bayon eta oladi, rasmdagi voqyeani tahlil qila oladi. Ko’rganlarini xotirasida qoldiradi va xotirasida qolganlarni so’zlay oladi.

Kerakli jixozlar: Mavzu asosida suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish.
2. Rasmlarga qarab ularni bir-biridan farqlash.
3. Rasmdagi voqyea-xodisani ongida taxlil qilish.

4. Do'sti bilan suhbatga kirishish.
5. «Ona Vatan» mavzusida egallagan bilimlarini so'zlash.
6. Do'stining fikrlarini tinglash.
7. Do'stining fikrlarini tahlil qilish

Qo'shimcha: Vatan to'g'risida she'r yod olish.

Alohiba e'tibor qaratiladi: Rasmlarni taxlil qilinishiga, xikoyada voqyea-xodisalarni ketma-ketligini to'g'ri tuzilganligiga.

Boshqa barcha yosh guruhlarida ham har bir mavzu bo'yicha til va nutq markazida mana shunday faoliyatlar belgilangan.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahoning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'ren olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatlari, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

XULOSA

Maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'limga tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'limga dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan, bir qator maqsad va vazifalar belgilangan.

Bolalarni maktab ta'limga tayyorlash bo'yicha MTT, oila va maktab o'rtaida muhim hamkorlik bo'lish zarur.

Maktabgacha ta'limga tashkilotlari ta'limga tarbiyaviy ishning takomillashtirishda "Ilk qadam" dasturini amalga oshirib bolalarni maktabga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni bu o'rinda MTT va maktab ishidagi izchilllik katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlash lozim bo'ladi.

MTT va maktab izchilligini, birinchidan, MTTdagi ta’lim-tarbiyaviy ishning bolalarga ular umumiyo rivojlantirishning zarur darajasiga erishishlari uchun mактабда qo‘yiladigan talablarga yo‘llanganligi, ikkinchidan, o‘qituvchining katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar erishgan rivojlanish darjasи, bolalarning bilim, malaka va ko‘nikmalariga tayanish hamda bundan ta’lim-tarbiya jarayonida faol foydalanishga yo‘llanganlikni nazarda tutuvchi mazmunli, ikki tomonlama aloqa, deb qarash mumkin.

MTT va mактабдаги butun pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘llanganligi ular o‘rtasida ta’lim-tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Maktabda MTTda kichik bolalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kishilar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar go‘zalligini, qahramonona jasorat go‘zalligini ko‘ra bilish qobiliyatini rivojlantirish davom etiladi, xulq-atvor etikasi tarbiyalanadi.

Maktabda bolalarda mehnatsevarlik, mehnat ahliga ijobiy munosabatni shakllantirish, mehnat malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishga doir ish izchilligi yanada rivoj topadi. Mehnat ta’limiga doir MTT va mактаб o‘rtasidagi izchillik mehnatning mazmunini murakkablashtirish va ijtimoiy foydalilagini yo‘nalganligini oshirish, bolalarning mehnatdagi mustaqillik va o‘zlarini uyushtirishlarini ortirish hamda bolalar tomonidan mehnat faoliyatida tarkib topadigan axloqiy munosabatlarni anglash yo‘nalishida boradi. Maktabning ta’lim-tarbiyaviy jarayonida bolani shakllanayotgan shaxsining barcha tomonlarini rivojlantirishda izchillik amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktabda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ish mazmunini belgilovchi dasturlar to‘plamlari ularning aloqasi izchillik asosini tashkil qiladi.

MTTning tayyorlov guruhi va boshlang‘ich sinflarning amaldagi dasturlarini qiyoslash ular o‘rtasida ma’lum izchil aloqa borligini ko‘rsatadi. Bu eng avvalo, dasturlarga asos qilib olingan boshlang‘ich falsafiy va psixologik nuqtai-nazarlar birligi, printsiplar birligi (mazmuning tarbi maqsadi va

vazifalariga muvofiqligi, hayot bilan aloqasi ilmiyligi, ta’limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi tabiatи va shu kabilar).

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilimlarining asosiy mazmunini atrof dunyo haqidagi xilma-xil tasavvurlarning keng doirasi va ayrim elementar tushunchalar tashkil qiladi. Voqeylekning turli sohalari haqidagi tasavvurlarning umumiy tizimi bolaga dunyo to‘g‘ri yo‘l topa bilishi va umumiy rivojlanishining zarur darajasini ta’minlaydi, bu siz zamonaviy boshlang‘ich ta’lim mazmunini egallab bo‘lmaydi.

Bularning barchasi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ta’limining yangi sharoitlariga faol kirishib ketishga tayyorlaydi. Shunday qilib, MTT va maktabda ta’lim-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishdagi izchillik maktabgacha va kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bosqichda bola shaxsini to‘xtovsiz, bir butun rivojlantirishni amalga oshirishni ta’minlaydi.

Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi, atrofdagi bilan munosabat tizimsining o‘zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o‘rinni ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv faoliyatini egallaydi. Unga odatiy bo‘lgan erkin o‘yin faoliyatidan farqli o‘laroq, endi ta’lim majburiy bo‘ladi va birinchi sinf o‘quvchisidan 4ta jiddiy munosabat talab qilinadi. Ta’lim faoliyatining etakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi: kun tartibi o‘zgaradi, erkin o‘yinlar vaqtini qisqaradi. Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi va intizomligiga talablar jiddiy ravishda ortadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi. **ILK QADAM /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/Toshkent-2022 yil.**
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmasini qarang//O‘yin orqali o‘rganish//birinchi nashr//Toshkent// 2020
3. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.
4. F.R.Qodirova va boshqalar. Nutq rivojlantirish metodikasi. T.: 2019.

5. Fayzullayeva M., Z. Raximova, M. Rustamova «Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish. (Tayyorlov guruhi uchun mashg'ulotlar ishlanmasi), -T., 2010.
6. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazaryasi va metodikasi. Toshkent-2018.